

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING DAVLATCHILIK FAOLIYATI VA HARBIY SAN'ATI

Umarov Asilbek Akbar o'g'li

Nizomiy nomidagi TDPU harbiy ta'lif fakulteti talabasi

Annotatsiya:

Temuriylar sulolasining buyuk vakillaridan biri bu Zahiriddin Muhammad Bobur hisoblanadi. Bobokolonimiz buyuk sarkarda va davlat arbobi, buyuk shoir, buyuk yozuvchi, geograf va tarixchi, hatto biology bo'lganligi ham bizga tarixdan ma'lum. Mazkur maqolada esa Zahiriddin Muhammad Bobur bobomizning davlatchilik faoliyati va harbiy san'ati yoritilgan.

Kalit so'zlar: davlat arbobi, imperiya, temuriylar, sarkarda, shoir, qo'shin, saltanat, etnograf, boburiylar.

Zahiriddin Muhammad Bobur ko'plab iste'dodlarga ega bo'lgan inson bo'lgan: Hindiston va Afg'onistonni zabit etgan buyuk sarkarda va davlat arbobi, lirik asarini sharq she'riyatining yorqin asarlari bilan taqqoslash mumkin bo'lgan buyuk shoir, buyuk yozuvchi, geograf va tarixchi, biolog. Bobur hamisha el-yurt, xalq uchun mas'uliyatni his etib kelgan. U o'z oldiga Temuriylar davlatini barpo etish, Samarqand atrofida markazlashgan imperiya tuzish, shu tariqa Sohibqironning orzusini ro'yobga chiqarish vazifasini qo'ygan. Ammo uning istaklari amalga oshmadi. Taqdir irodasi bilan Qobulda taxtga chiqdi, Hindistonda buyuk Boburiylar imperiyasiga asos soldi. Temuriylar sulolasining buyuk vakillari hisoblanmish boburiylar tarixi hind xalqlari tarixida o'zining munosib o'rniiga ega. G'arbdagi boburshunos olimlardan biri ingliz olimi Valdemar Xansen o'zining 1986 yilda Dehlida chop etilgan "Tovus toj yoki mo'g'ullar saltanati qismati" kitobida boburiylar sulolasining Hindistondagi 332 yillik faoliyatiga yuksak baho beradi: "Hindiston va uning 8 ming yillik tarixi bamisol bir tovus bo'lsa, o'sha ko'p ming yillik tarixdagi boburiylar sulolasining 332 yillik hukmronlik davri ana shu tovusning gultojisidir". Hindistonda davlatchilik siyosatini mustahkamlash, mayda-mayda feodal, rojaliklarga bo'linib ketgan yurtni yaxlit davlatga aylantirish, o'lka viloyatlarini markaziy saltanatga birlashtirish kabi maqsadlarda Bobur Mirzo Hind zamini sari harbiy yurishlarini amalga oshirdi. 1525-yilda Bobur Rano Sango bilan ittifoq tuzib, Shimoliy Hindistoni egallash maqsadida Ibrohim Lo'diyiga qarshi jangga kirdi. 1525-yil kech kuzda Bobur Panjobni bo'ysundirdi, 1526-yilda Panipat qishlog'i yaqinidagi bиринчи jangda Boburshoh qo'shini Dehli sultonni Ibrohim Lo'diyning ukasi Mahmud Lo'diy qo'shini ustidan g'alaba qozonib, Bengal shohi Nusratshoh bilan do'stona aloqalarini o'rnatdi. 1526-yil apreldagi Panipat jangida Bobur asosiy raqibi, Dehli sultonni Ibrohim Lo'diyning 100 ming kishilik qo'shinini o'zining 12 minglik askari bilan tor-mor qiladi hamda Dehlini egallaydi. 1527-yil martda Bobur Sikri yaqinidagi jangda rajputlar sardori Rano Sango qo'shinini tor-mor etib, butun Shimoliy Hindiston bo'ysundurdi. Zahiriddin Bobur Hindistonda Boburiylar imeriyasiga asos solish bilan birga, pochta-aloqa sohasiga ham jiddiy o'zgartirishlar kiritdi, vaqt birligiga yangilik joriy etdi, arxitekturada Movarounnahr me'morlik uslublarini qo'lladi, milliy artilleriya, harbiy-dengiz flotiga asos soldi. Buyuk Boburiylar imperiyasi davri nafaqat tarixiy ahamiyatga ega, balki Hindistoni ulkan me'moriy yodgorliklar, noyob adabiy-tadqiqot ishlari bilan boyitdi. Hindistonning Buyuk Boburiylar sulolasiga qarashli me'moriy obyektlari – Fotihpur-Sikridagi Shoh saroy majmuasi, Agra, Dehli va Lahor qirg'oqlari saroylari va bog'lari kabilardir. Boburning tarixchi, geograf, etnograf, nasriy yozuvchi va shoir sifatidagi layoqati hozirgi kunda jahon sharqshunoslari tomonidan keng e'tirof etilmoqda.

Tarixchi, iste'dodli so'z san'atkori, davlat arbobi va sarkarda Bobur vafotidan to'rt asrдан ko'proq vaqt o'tdi, ammo uning nomi boqiydir. Boburshohning yuragi ba'zan Vatanni – Andijonni qo'msab tursa ham, vaqt soati kelib boqiy dunyoga ketgunicha hayotining qolgan qismini Hindistonda bunyodkorlik, davlat va ma'muriy ishlarni odilona hal qilish bilan o'tkazdi. Boburiylar butun dunyoga mashhur bo'lgan tarixiy obidalarni bunyod etdilarki, ular hozirda ham dunyoni lol qoldirib kelmoqda. Zahiriddin Muhammad Bobur sohibqiron Amir Temurning jang san'ati va boshqaruv mahoratidan tashqari, o'z so'zi, nutqi va voizlik mahoratiga ega bo'lganini ham eshitgan, bilgan.

Amir Temurning qudrati, avvalo, uning donishmand fikrlarida, maslahatli kengashlardagi so'zlangan nutqlarida namoyondir. Ushbu sifatlarni hech ikkilmasdan Zahiriddin Muhammad Bobur haqida ham aytish mumkin. Mard va tadbirdor, san'atni sevgan kishigina qat'iy iroda, o'z so'ziga, fikriga ega inson bo'lishi tayin. Jonli manzaralar yaratuvchi, da'vetkor kuchga ega so'zning o'rni katta. To'p-u zambaraklar, behisob qo'shin eplay olmagan ishni oddiy so'z bajara olganiga tarix shohid. Boburning nutqiy mahorati haqida mufassal ma'lumotni shoh va shoirning qizi Gulbadanbeginning «Humoyunnoma» asaridan olish mumkin. 1527 yili Boburning Hindistonda Rano Sango bilan jangi oldidan qo'shnular orasidagi vaziyat aziyatga sabab bo'ladi. Boshi qovushmagan jangchilar orasida ixtilof va tarqoqlik boshlanadi. Shunda Bobur lashkarga qarata jonli, ta'sirchan nutq irod qiladi. Gulbadanbeginim «bunga majlisdagilarning hammasi rozi bo'lischib..., tomirimizda bir tomchi qonimiz qolguncha kurashamiz, deb qasam ichadilar...» degan dalilni keltiradi: «Har kimki hayot majlisiga kiribtur, oqibat ajal paymonasidin ichkusidir va har kishikim, tiriklik manziliga kiribtur, oxir dunyo g'amxonasidin kechkusidur, yomon ot bilan tirilgandin, yaxshi ot bilan o'lgan yaxshiroq... Tangri taolo bu nav' saodatni bizga nasib qilibtur va mundoq davlatni bizga qariyb aylabtur. O'lgan shahid va o'ldurg'on g'oziy, barcha Tangrining kalomi bilan ont ichmak kerakkim, hech kim bu qatoldin yuz yondirur xayol qilmay, to badandin joni ayrilmag'unicha, bu muhoriba va muqotiladin ayrilmag'ay...» Boburning ushbu otashin, jangovar nutqidan so'ng barcha askarlar yakdil holda, jam bo'lib, jangga kirishgan. Jang oldidan lashkarni ruhlantirish, g'alabaga nisbatan ishonch tuyg'usini uyg'otish tajribali qo'mondonlarning faoliyatida sinashta bo'lgan. Boburning notiqlik mahoratiga misol sifatida shunga o'xshash yana bir holatni kuzatish mumkin. Hindistonda davlatchilik siyosatini mustahkamlash, mayda-mayda feodal, rojaliklarga bo'linib ketgan yurtni yaxlit davlatga aylantirish, o'lka viloyatlarini markaziy saltanatga birlashtirishda ham u ritorik san'atning imkoniyatlaridan foydalangan. Bobur Mirzoning harbiy mahorati va notiqlik san'ati imkoniyatlarini bilishi jang-u jadallarda qo'l kelganiga Hind va Afg'on zamini sari harbiy yurishlarida yaqqol ko'rindi. 1525 yilda Bobur Rano Sango bilan ittifoq tuzib, Shimoliy Hindistonni egallash maqsadida Ibrohim Lo'diyiga qarshi jangga kirdi. 1525 yil kech kuzda Bobur Panjobni bo'ysundirdi, 1526 yilda Panipat qishlog'i yaqinidagi birinchi jangda Boburshoh qo'shini Dehli sultonni Ibrohim Lo'diyning ukasi Mahmud Lo'diy qo'shini ustidan g'alaba qozonib, Bengal shohi Nusratshoh bilan do'stona aloqalarni o'rnatdi. 1526 yil apreldagi Panipat jangida Bobur asosiy raqibi, Dehli sultonni Ibrohim Lo'diyning 100 ming kishilik qo'shinini o'zining 12 minglik askari bilan tor-mor qilishi aqlga sig'maydigan hol. O'n ikki ming askar orasida yuz ming qo'shinga qarshi jangga kirish mushkul ekanini o'ylab, talmovsirash boshlanadi. Uy-joyini qo'msab, oila va farzandlari diydorini ko'rmasdan behuda o'lib ketish xavfi askarlarni cho'chitadi. Jangga kirishdan bo'yin toylagenlari ham bo'ladi. Bundan achchiqlangan Mirzo Bobur o'z jahlini sezdirmasdan ot ustida tikka turgani holda askarlariga shunday mazmunda murojaat qiladi. «Oralaringizda o'lmaydigan, abadiy tirik qoladiganingiz bormi?» Hamma jim. U davom etadi. «Quyosh botish uchun chiqadi, odamzot o'lish uchun tug'iladi. Bu ayni haqiqat. It ham o'ladi, yigit ham o'ladi. Lekin ularning o'limi orasida farq

bor. It nafsi sabab o'lsa, yigit hamiyatini, yurtini, or-nomusini himoya qilib jon taslim etadi. Yigit kishi o'z elini, vatanini, shon-shavkatini, din-diyonatini, ona tuprog'ini ko'z qorachig'idek asrash yo'lida vafot etsa bu sharaflı o'limdir. Avlodlarning erki, tinch va osoyishta yashashidan ulug' ne'mat bormi, o'zi. Yengsak g'oziyimiz, mabodo, qazo qilsak shahid hukmidamiz». Buni tinglagan askarlar bir necha soniya jim turishadi. Birozdan keyin butun olamni tutgudek na'ra tortishadi. «Biz janggga tayyormiz, biz albatta yengamiz!» Askarlar qilich va nayzalarini baland ko'tarib jangga shayligini bildirishadi. Ana shu nutqiy xitob, jangovarlik ruhi bilan sug'orilgan da'vatnama nutq Dehlini egallahsha, 1527 yil martda Bobur Sikri yaqinidagi jangda rajputlar sardori Rano Sango qo'shinini tor-mor etib, butun Shimoliy Hindistonna bo'ysundirishiga sabab bo'ladi.

Zahiriddin Muhammad Bobur Mirzo notiqlik san'atini mukammal egallagan bo'lib, u nafaqat harbiy notiqlikda, balki umuman voizlik san'atida yuqori cho'qqiga erishgan mahorat sohibidir. Bobur o'zi va so'zi joiz bo'lgan voizdir. U kimga, nima haqda, qachon, qayerda, qanday qilib, muhimi, qancha aytishni taqozo qiladigan san'at mohiyatini bilgan va amalda qo'llay olgan shoh va shoirdir. Jangovar va tinchlik sharoitida ham nutqning o'rni borasida so'z ketarkan, Bobur mirzoning hayotiy va ijodiy faoliyati bunga misoldir. Strategik maqsadlarni amalga oshirish tilni qo'llash taktikasi bilan bog'liq bo'lgan ayni zamonda Bobur mirzo qarashlari ijtimoiy mohiyat kasb etishi tayin. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Bobur va boburiylar xalqimizning buyuk farzandlaridir. Ular o'zlarining serqirra faoliyati va ijod durdonalari bilan jahon madaniyati tarixiga munosib hissa qo'shdilar.

Foydalanilgan Adabiyotlar

1. N. G'. Nizomiddinov. (XVI-XIX asr) Buyuk Boburiylar tarixi. 68-70 bet.
2. Uilyam Erksin. Bobur Hindistonda. Toshkent. 71-72 bet.
3. Boburnoma. Toshkent-1960 46-47 bet.
4. G'ofurjon Satimov, Markaziy Osiyo va Hindiston tarixida Boburiylar davri Toshkent-2008 48-51 betlar.
5. Hasan Qudratullayev. Boburning davlatchilik siyosati.
6. Vahob Rahmonov. Boburshunoslikdagi yangi yutuqlar.